

INTERNATIONAL SCIENTIFIC ONLINE CONFERENCE

FRANCE

SCIENTIFIC APPROACH
TO THE MODERN
EDUCATION SYSTEM



ISOC
INTERNATIONAL
SCIENTIFIC
ONLINE
CONFERENCES

zenodo OpenAIRE



digital
object
identifier

OPEN ACCESS



info.interonconf@mail.ru

www.interonconf.com



ISOC
INTERNATIONAL
SCIENTIFIC
ONLINE
CONFERENCES



**FRANCE international scientific-online conference:
"SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN
EDUCATION SYSTEM"**

Part 24
5th APRIL

COLLECTIONS OF SCIENTIFIC WORKS

PARIS 2024

SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM: a collection of scientific works of the International scientific online conference (5th April, 2024) – France, Paris: "CESS", 2024. Part 24– 194 p.

Chief editor:

Candra Zonyfar - PhD Universitas Buana Perjuangan Karawang, Indonesia Sunmoon University, South Korea.

Editorial board:

Martha Merrill - PhD Kent State University, USA

David Pearce - ScD Washington, D.C., USA

Emma Sabzalieva - PhD Toronto, Canada

Languages of publication: русский, english, қазақша, о'zbek, limba română, кыргыз тили, Հայերեն....

The collection consists of scientific researches of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference.

"SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM". Which took place in Paris on April 5th, 2024

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.

© "CESS", 2024
© Authors, 2024

Saidova Mukhayyo Umedilloevna Akhrorova Mukhabbat Khamidovna <i>EXPLORING THE TYPES OF ORAL DISCOURSE</i>	166
Saidova Mukhayyo Umedilloevna Olimova Sharifa Siddiqovna <i>UNDERSTANDING CONTEXT, TRANSLATION, AND INTUITION IN COMMUNICATION</i>	170
Saidova Mukhayyo Umedilloevna Nadirkhanova Nozima Alisherovna <i>TILSHUNOSLIKDA DISKURSIV SATHNING O'RGANILISHI</i>	173
Khudoev Samandar <i>CLASSIFICATION OF UZBEK PUZZLES ACCORDING TO THE PERIOD OF CREATION</i>	177
Ubaydullayeva Muattar O'rinbekovna <i>THE PROBLEM OF LACUNA IN LINGUISTICS</i>	183
Ikromov Sanjarbek Rahmonjonovich <i>GLOBAL CLIMATE CHANGE AND THE ARAL SEA</i>	189
Санобар Сиддиқова Хайдаровна Шерматова Зарнигор Мамарасул кизи Кушакова Гузал Узокбой кизи <i>UZLUKSIJZ TA'BLIM JARA'ENIDA MUSTAQILFIKRLOVCHI, IJODKOR SHAHSNI TARBIAJLASHNING PEJADOGIK-PSIXOLOGIK MASALALARI</i>	195
Абдумаликовой Шахризоды <i>ВЕГЕТАТИВНОЕ РАЗМНОЖЕНИЕ ХЛОРОФИТУМА(chlorophytum)</i>	200
Suyunov G'olib Tufli o'g'li Qiyomov O'ral Ali o'g'li <i>QASHQADARYO VILOYATINING AYRIM QURUQLIK VA CHUCHUK SUV MOLLYUSKALARI.</i>	203



Saidova Mukhayyo Umedilloevna
Associate Professor of Bukhara State University
Nadirkhanova Nozima Alisherovna
Master Student, Bukhara State University

Abstract: *This article deals with the study of the dichotomy of language and speech in linguistics, its essence and importance, issues and opinions about the tasks of speech. In modern linguistics, an attempt is made to reveal the complex phenomenon of spoken communication, discourse, and its characteristics.*

Key words: *language, speech, speech communication, discourse, communicator, addressee.*

Аннотация: *Данная статья посвящена изучению дихотомии языка и речи в лингвистике, ее сущности и значения, вопросов и мнений о задачах речи. В современной лингвистике предпринимается попытка раскрыть сложный феномен речевого общения, дискурса и его характеристики.*

Ключевые слова: *язык, речь, речевое общение, дискурс, коммуникатор, адресат.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tilshunoslikdagi til va nutq dixotomiyasining o'rganilishi, mohiyati va ahamiyati, nutqning vazifalari xususidagi masala va fikr-mulohazalarga munosabat bildiriladi. Zamonaviy tilshunoslikda nutqiy muloqot, diskurs sifatida baholanayotgan murakkab hodisa va uning xususiyatlarini ochib berishga harakat qilinadi.*

Kalit so'zlar: *til, nutq, nutqiy muloqot, diskurs, kommunikator, adresat.*

XX asr tilshunosligi – sistem tilshunoslikning bosh, asosiy mezonini til va nutq munosabati, til va nutq hodisalarini, birliklarini farqlash bo'ldi. Aytish mumkinki, til va nutq dialektikasi nazariy va amaliy tilshunoslikning, shuningdek, ular bilan kesishuvchi nuqtalarda psixologiya, falsafa, mantiq kabi fanlarning ham muhim va murakkab muammolaridan biri bo'lib, ayni masala dunyo tilshunosligining doimiy diqqat va tadqiq markazida turibdi.

Ma'lum bo'ldiki, tildan fikr almashuv-kommunikatsiya maqsadida foydalanish jarayoni nutqdir. Tilning yashashi, mavjudligi, taraqqiyoti nutq orqali bo'ladi. Tilning har bir aniq, ko'rinishi real nutqdir, nutq faoliyatidir. Professor Sh. Safarov ta'kidlaganidek³⁰, XX asrning 70-yillarigacha tilshunoslar muloqot jarayonida yaxlit bir butunlik sifatida voqelanuvchi va lingvo-etno-psixo-situatsion omillar majmui bo'lgan muloqot birliklaridan faqat og'zaki va yozma nutq shaklida voqelana oladigan hodisalarnigina tilshunoslikning tadqiqot birliklari sifatida ajratib olib, ularni o'rganish bilan shug'ullandilar.

Inson o'zining mohiyati, ruhiyati va faoliyatini bevosita til, nutq orqali ifoda etadi. Tilning turli vazifalarni bajarishi xususida tilshunoslarning mulohazalari mavjud: Jumladan, tilning kommunikativ – kishilar o'rtasida asosiy aloqa vositasi ekanligi, ekspressiv -turli fikr va tuyg'ularni ifodalashi, konstruktiv -fikrlarni shakllantirish, tartibga

³⁰ Сафаров Ш., Тоирова Г., Нуткнинг этносоционрагматик тахлили асослари. Ўқув қўлланма. - Самарқанд, СамДЧТИ нашри, 2007. - 39 бет.

solish va ifoda tarzini belgilash, akkumulyativ ijtimoiy tajriba va bilimlarni to'plash, saqlash va h.k. vazifalari farqlanadi³¹. Keyingi yillarda tilni funksional-vazifaviy tadqiq etishga e'tibor kuchaydi va natijada nutqiy kommunikatsiya, aloqa-aralashuv jarayoni, uning yuzaga chiqishini ta'minlovchi turli vositalarni o'rganish ham tilshunoslikning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Zero, til muloqot birligi sifatida voqelanganda diskursning to'laqonli bo'lishini ta'minlash uchun nafaqat ko'plab lisoniy, balki qator nolisoniy omillarga ham sezilarli darajada ehtiyoj sezadi.

Ta'kidlash joizki, bugungi shiddatkor davrimizda bozor iqtisodiyotining eng asosiy omili deyarli har jabhada faoliyatning samaradorligi hisoblanagi. Bu samaradorlik, mutaxassislar aytmoqchi, kam sarflab, ko'pga erishishni nazarda tutadi. Mazkur tamoyilni tilga tatbiq etilganga chiqadigan xulosa shundan iboratki, qaysi birlikni muayyan nutqiy sharoit, vaziyat va holatda qo'llasak, samara ko'proq, ta'sirchanroq bo'ladi, tarzida ifodalash mumkin. Bu o'rinda e'tirofga sazovor nuqtayi nazar esa, bunday samaradorlikka faqat "lisoniy imkoniyatlar"dan foydalanish asosidagina emas, balki tanlab olingan lisoniy vositani psixik, fiziologik, etnik, tabiiy kabi o'nlab omillar bilan bog'lanishda qo'llagandagina erishish mumkinligi haqida aytilgani, desak, yanglishmaymiz. Shu o'rinda: "Til o'zining jamiyatdagi kommunikativ (informativ, ekspressiv, emotiv, volyuntativ va boshqa) vazifasini qanday ko'rinishda, qanday qiyofada, qanday shaklda amalga oshiradi?" – degan haqli savol tug'iladi. Aytish mumkinki, ijtimoiy-psixik jarayon bo'lgan til o'zining jamiyatdagi kommunikativ, ekspressiv va umuman har qanday vazifasini nutq shaklida, nutq ko'rinishida, nutq orqali amalga oshiradi. Nutq til sistemasining so'zlashuv, fikr almashuv jarayonidagi yoki yozuvdagi-matndagi aniq ifodasidir, ko'rinishidir, holatidir. Shunga ko'ra, S.Usmonov —Til qachon ma'lum funksiyami bajarishi mumkin? Til nutq sifatida namoyon bo'lgandagina ma'lum funksiyani bajarishi mumkin, deydi.

Har qanday muloqotda so'zlovchi va tinglovchi zaruriy komponentlar sifatida albatta ishtirok etadi. Tadqiqotlarda so'zlovchi, ya'ni xabar beruvchi, gapiruvchi adresant, kommunikator deb, adresantning nutqi qaratilgan shaxs– tinglovchi adresat, kommunikant deb, muloqotda bivosita ishtirok etuvchi omillar esa ta'sir birliklari deb yuritiladi.

Professor Sh. Safarov va tilshunos G.Toirovalarning e'tirofi³² va bizning fikrimizcha ham, nutqni jarayon sifatida o'rganish faqat muloqot – so'zlovchi va tinglovchi orasida o'zaro diskurs (fikr almashtirish), savolga yarasha javob berish holatidagina tadqiqi etilishi to'g'ri bo'ladi. Shu tufayli XX asrning so'nggi yillarida mazkur masala tadqiqi bilan shug'ullanuvchi tilshunoslikning yangi tarmog'i – diskursologiya fani, muloqotni tadqiq etuvchi fan shakllandi.

Tadqiqotimizning, ya'ni og'zaki diskursda rad etishning kommunikativ strategiyalarini o'rganish ham ayni shu muloqot jarayoni mohiyatini ochib berishga qaratilgandir. Bizningcha, muayyan mavzudagi so'rov, iltimos yoki taklif ma'nolarini rad etishda bir qancha og'zaki ifoda shakllarini qo'llash mumkin. Chunonchi: **So'zlar, birikma va iboralar yordamida:** *yo'q, yo'q'-yo'q, yo'g'-ey, yo'g'-a, yo'g'-ov, yo'q edi-ya, bo'lmaydi, to'g'ri kelmaydi, afsus, afsusdaman, iloji yo'q, imkoni yo'q, rad etaman, qarshiman, noroziman, rozi emasman, hech*

³¹ Аврорин В.А. Проблемы изучения функциональной стороны языка., Ленинград. 1975, С -44.

³² Ko'rsatilgan asar

iloji yo'q, nachora, bo'p qolar, qaydam, qayoqda, topilmaydi, anqoni urug'i, orzuda ayb yo'q, topilishi qiyin, topmasam kerak, nima ekan u, tushingizni suvga ayting, , mutlaqo yo'q, qo'ysangiz-chi, bermayman, berolmayman, hozir yo'q-da... va b.

Undovlar, modal so'zlar, mimemalar orqali: ovvvv, a'-a', hi'-i', chch, chiqq' va b.

Xatti-harakatlar orqali: Ikki qo'lni ikki yonga cho'zish, bosh chayqash, qo'lni sal ko'tarib silkish, labni qimtib bosh qayqash, lab burib, qosh chimirish va b.

Holatlar orqali: yig'lash, sukut va h.k.

Keltirib o'tilgan mazkur misollar ishtirokidagi yozma namunalarni badiiy asarlar, turli ma'ruzalar, nutq parchalaridan ham keltirish mumkinki, ularda nutq vaziyati, xohish-istak, maqsad, kayfiyat va h.k.lar bilan bog'liq bir qator yangi birliklarni ham uchratish tabiiy.

Xulosa qilib aytganda, inson hayoti davomida muloqotning xilma-xil turlariga murojaat qiladi. Muloqot turlarining bir-biridagi farqlanishi kishilarning borliqqa, bir-biriga munosabatlarining nihoyatda ko'p qirrali va turli-tuman ekanligidan dalolat beradi. Albatta, o'zaro munosabatlarda muayyan muloqot turining tanlanishi, uni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari ko'p jihatdan shaxslar o'rtasidagi aloqa-munosabatlar xarakteriga bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Аврорин В.А. Проблемы изучения функциональной стороны языка., Ленинград. 1975, С -44.
2. Сафаров Ш., Тоирова Г., Нутқнинг этносоционрагматик таҳлили асослари. Ўқув қўлланма. - Самарқанд, СамДЧТИ нашри, 2007. - 39 бет.
3. Искандарова Ш.М. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. - Самарқанд, 1993.
4. Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан.д-ри. ... дисс. -Тошкент, 2000. -Б. 198-204.
5. Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. ...д-ри. дисс. - Тошкент, 2001.
6. Mamatov A. O'zbek va ingliz tili onomastikasining lingvomadaniy xususiyatlari (uslubiy qo'llanma) Xorijiy til va adabiyoti (tillar bo'yicha). 2019 yil.
7. Umedilloevna, S. M., & Alisherovna, R. N. (2022). LEXICOGRAPHIC ANALYSIS OF THE ROUTLEDGE DICTIONARY OF LITERARY TERMS BY PETER CHILDS AND ROGER FOWLER. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(4), 672-675. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=w-pRILIAAAAJ&citation_for_view=w-pRILIAAAAJ:-FonjvnnhkoC
8. Umedilloevna, S. M. (2022, January). Peter Childs Va Rojer Faulerning Adabiyotshunoslik Terminlarining "the Routledge Dictionary of Literary Terms" Lug'atiga Izohlar. In *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes* (pp. 56-58).

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=w-pRILIAAAAJ&citation_for_view=w-pRILIAAAAJ:LI9QrySNdT5C

9. Umedilloevna, S. M., & Shavkatovna, S. M. ADABIYOTSHUNOSLIK TERMINLARINING YASALISH TURLARI VA LINGVISTIK OMILLARI.

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=w-pRILIAAAAJ&citation_for_view=w-pRILIAAAAJ:PoWvk5oyLR8C

10. Umedilloevna, S. M., & Siddiqovna, O. S. (2024). Theme: The Role of Communicative Strategies in Discourse. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(1), 292-295.

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=w-pRILIAAAAJ&citation_for_view=w-pRILIAAAAJ:4fGpz3EwCPoC